

**NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNI MEHNAT HUQUQLARINI HIMoya
QILISHGA DOIR QONUNCHILIK IJROSI YUZASIDAN PROKUROR NAZORATINI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALAR**

Anvarjonov Xurshidjon Akmal o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Prokuratorlik faoliyati
yo'nalishi magistratura tinglovchisi.

Email: anvarjonovxurshidjon@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11531349>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnat huquqlarini himoya qilishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokurator nazoratini va uni tashkil etishni bugungi kundagi holati, ahamiyati va dolzarbligi, shuningdek, bu sohada prokurator nazoratini takomillashtirish yuzasidan xorijiy davlatlar tajribasi asosida bildirilgan fikr-mulohazalar hamda mavjud muommolarni bartaraf etish yuzasidan takliflar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: nogironligi bo'lgan shaxs, mehnat huquqi, prokurator nazorati, nazorat tadbirlari, qonun ustuvorligi, profilaktika, qonunchilik hujjati, tekshirishlar.

**ISSUES OF IMPROVING THE PROSECUTOR'S CONTROL OVER THE
IMPLEMENTATION OF LEGISLATION ON THE PROTECTION OF LABOR
RIGHTS OF PERSONS WITH DISABILITIES**

***Abstract.** This article describes the prosecutor's control over the implementation of legislation related to the protection of labor rights of persons with disabilities and its organization on the basis of the current state, significance and relevance, as well as feedback expressed on the experience of foreign countries on improving prosecutor's control in this area, as well as proposals for eliminating existing.*

Keywords: person with disabilities, labor law, prosecutor's control, control measures, rule of law, prevention, legislative act, inspections.

**ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОКУРОРСКОГО КОНТРОЛЯ ЗА
ИСПОЛНЕНИЕМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О ЗАЩИТЕ ТРУДОВЫХ ПРАВ ЛИЦ
С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ**

***Аннотация.** В данной статье изложено современное состояние, значение и актуальность прокурорского надзора и его организации за исполнением законодательства о защите трудовых прав лиц с ограниченными возможностями здоровья, а также высказаны замечания по совершенствованию прокурорского надзора в данной области, а также предложения по устранению имеющихся проблем.*

Ключевые слова: лицо с ограниченными возможностями здоровья, трудовое право, прокурорский надзор, контрольные мероприятия, верховенство закона, профилактика, законодательный акт, проверки.

Bugungi kunda aholining alohida ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami hisoblangan nogironligi bo'lgan shaxslarni qonunchilikda belgilab qo'yilgan huquq va erkinliklarini ta'minlash va ularni har qanday qonun buzilishidan himoya qilish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning asosiy yo'naliшини tashkil etmoqda. Bu borada qabul qilinayotgan qonunchilik hujjatlari hamda amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi nogironligi bo'lgan shaxslarni huquqlarini himoya qilishga qaratilganligi bilan harakterlanadi.

Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "...inson huquq va erkinliklariga amal qilinishini ta'minlash, har bir shaxsning qadr-qimmatini e'zozlash bir barpo etayotgan ochiq, erkin va adolatli jamiyatning ajralmas qismidir"¹. Shu sababli ham adolatli, erkin jamiyat qurish uchun mamlakatimiz oldida turgan birinchi navbatdagi vazifa sifatida inson huquqlarini himoya qilish namayon bo'lmoqda.

Hozirda nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnat huquqlari, shu jumladan, ish bilan ta'minlashga doir huquqlarini to'la ravishda amalga oshirish va bu huquqlarni har qanday buzilishlardan himoya qilish dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, bu vazifalarni samarali amalga oshirishning yagona yo'li - bu sohadagi qonunchilikni aniq va bir xilda bajarilishini doimiy nazorat qilish hisoblanadi. Shu sababli bu sohada doimiy nazoratni amalga oshirishda prokuratura organlari muhim o'ringa ega bo'lib, bu organlarni asosiy vazifasi mamlakatimiz Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyaning 143-moddasida "O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarni aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar tomonidan amalga oshiriladi"², deb ko'rsatilgan.

Darhaqiqat, bugungi kunda prokuratura organlarini nazorat faoliyati sohasi boshqa huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatidan o'zinig universalligi bilan ajralib turadi. Bu borada O.M. Madaliyevning "Prokuratura organlarining o'ziga xos jihat shundaki, barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlar cheklangan huquqiy munosabatlar sohasida qonunlarga riosa etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Prokuraturaning vakolatlari esa universal xarakterga ega bo'lib, huquqiy munosabatlarning butun sohasiga qo'llaniladi"³, degan fikrlarini o'rini

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 2019-yil 9-dekabr.

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [Matn]. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2023-yil.

³ Madaliyev O.M. Prokuror nazorati. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. (Umumiyl qism.) T.: «ILM ZIYO», 2012. – B. 42.

hisoblanadi. Shu sababli ham prokuratura organlari barcha sohalar, jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnat huquqlarini himoya qilish sohasida ham bevosita prokuror nazoratini amalga oshirish bilan birga bu sohada qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, nogironligi bo'lgan shaxslarni huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda bu sohadagi huquqbazarlikni profilaktika qilish kabi vazifalarni ham amalga oshiradi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnat huquqlarini himoya qilishga doir qonunchilik ijrosi yuzasidan prokuror nazorati masalasiga bevosita to'xtaladigan bo'lsak, umumiy prokuror nazorati tushunchasiga oydinlik kiritib o'tish zarur. Bu masalada huquqshunos olim B.Po'latov "Prokuror nazorati – davlat faoliyatining shu davlat nomidan amalga oshiriluvchi alohida mustaqil ko'rinishi va prokuraturaning asosiy funksiyasi hisoblanadi"⁴, degan fikrlarini bildirib o'tgan. Bu borada S.G.Kexlerov va O.S.Kapinuslarning fikricha, "prokuror nazorati prokuratura tomonidan amalga oshiriladigan Konstitutsiya va amaldagi qonunlarga rioxalishini tekshirishda ifodalangan davlat faoliyatining bir turidir"⁵. Ushbu huquqshunos olimlarni fikrlariga yaqin fikrlarni ham A.V.Akchurin va S.V.Legostaevlar⁶ ham bildirib o'tgan bo'lib, ular ham prokuror nazoratini davlat faoliyatining bir turi sifatida ta'riflashgan. Bu borada huquqshunos olim A.B.Komilov kengroq tushuntirish berib o'tgan bo'lib, uning fikriga ko'ra esa "Prokuror nazorati deganda, prokuratura organlarining Konsitutsiya va qonunlarga asoslangan holda, ularga qonunda berilgan vakolatlar doirasida davlat hokimiyati tarmoqlaridan mustaqil ravishda amalga oshiriladigan, qonunbuzulishi holatlarini o'z vaqtida va tezkorlik bilan aniqlash, ularga huquqiy baho berish, aybdor shaxslarga nisbatan javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash, qonunbuzulish holatlarining kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf qilish hamda ularni oldini olishga qaratilgan maxsus faoliyatdir"⁷. Ushbu bildirilgan yuqorida fikrlarga qo'shilgan holda nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnat huquqlariga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati – prokuratura organlarining Konstitutsiya va qonun bilan berilgan vakolatlar doirasida boshqa davlat idoralaridan mustaqil ravishda amalga oshiradigan, nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnat huquqlarini himoya qilish sohasida qonun buzulishi holatlarini o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, huquqbazarliklarni oldini olish, profilaktika qilish, huquqbazarlik sodir etgan shaxslarni belgilangan tartibda javobgarlikka tortish

⁴ Po'latov B.X. O'zbekiston Respublikasi prokuraturasining konstitutsiyaviy maqomi // "O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasining Oliy o'quv yurtlari axborotnomasi", 2017, №4 (32).

⁵ Настольная книга прокурора / под общ.ред. С. Г. Кехлерова, О. С. Капинус. 3-е изд., пе-пераб. и доп. М.: изд-во «Юрайт», 2014.

⁶ Акчурин А. В., Легостаев С. В. Прокурорский надзор в схемах: учебное пособие. М., 2019.

⁷ Komilov A.B. Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish. Diss. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuratura akademiyasi, - Т. 2020.

masalalarini hal etish hamda sohada qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish faoliyatidir deb fikr bildirishimiz mantiqan to'g'ri bo'ladi deb hisoblaymiz.

Shuningdek, Nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnat huquqlarini himoya qilishga doir qonunchilik ijrosi yuzasidan nazoratni amalga oshirishda nazorat obyektlarni to'g'ri aniqlab olish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu masalada Kazarina Prokuratura to'g'risidagi qonunning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib "nazorat obyektlariga qonunda prokuror nazorat qiladigan vazirliklar, ijob etuvchi hokimiyat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, tijorat va notijorat tashkilotlari, qonunlarning bajarilishi uchun mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslar, shu jumladan davlat hokimiyati va mahalliy davlat hokimiyati organlarining mansabdor shaxslari, tijorat, notijorat tashkilotlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining rahbarlari kiradi"⁸, degan fikrlarni bildirib o'tgan. Mamlakatimiz "Prokuratura to'g'risida"gi qonunda ham qonunlari ijrosi yuzasidan nazoratni amalga oshirish obyektlari keltirib o'tilgan bo'lib, 20-moddasiga ko'ra "Vazirliklar, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar va idoralarning harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar"⁹, nazorat obyektlari sifatida keltirib o'tilgan.

Ushbu normadan kelib chiqib, Nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnat huquqlarini himoya qilishga oid qonunchilik ijrosi yuzasidan prokuror nazorat obyektlariga:

- O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqatirish va bandlik vazirligi va uning joylardagi bo'limlari;
- Ushbu vazirlik tarkibidagi Davlat mehnat inspeksiysi va uni bo'limlari;
- Mahalliy davlat hokimiyati organlari;
- Ijtimoiy himoya milliy agagentligi va uni bo'limlari;
- O'zbekiston nogironlar assotsatsiyasi, shu kabi nogironligi bo'lgan shaxslar jamoat birlashmalari va bu sohada vakolatli bo'lgan boshqa davlat organlari, tashkilot va mussasalar kiradi deb fikr yuritishimiz mumkin. Prokuror ushbu ko'rsatib o'tilgan tuzilmalarda nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat huquqlarni himoya qilishga doir qonunchilik ijrosi yuzasidan nazoratni amalga oshirish jarayonidan bevosita tekshirishlar o'tkazish, bu sohaga doir hujjalarni va boshqa turdag'i ma'lumotlarni yuqorida ko'rsatib o'tilgan nazorat obyektlaridan olish, tushuntirishlar talab qilish va shu kabi boshqa qonunda ko'rsatib o'tilgan vakolatlarga ega hisoblanadi.

⁸ Казарина А.Х. Избранные труды / сост. Р.В. Жубрин и др.; Академия Генеральной прокуратуры Российской Федерации. М., 2014.

⁹ O'zbekiston Respublikasi "Prokuratura to'g'risida"gi qonuni. 2001-yil 29-avgust 257-II-sonli. Elektron manbaa] // Lex.uz, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – T, 2024 (tashrif buyurilgan 03.03.2024).

Umuman olganda, bu sohada prokuror nazoratini to'g'ri tashkil etish o'tkazilayotgan tekshirishni natijadorligini hamda samaradorligini kafolati bo'lib xizmat qiladi. "Qonunlarning ijrosini nazorat qilish bo'yicha ishlarni tashkil etish umuman prokuratura ishini tashkil etishning ajralmas qismi bo'lib, u prokuror kadrlarini tanlash, joylashtirish, malakasini oshirish, ularning faoliyatini doimiy ravishda tartibga solish (yo'naltirish), ularni barcha zarur vositalar bilan ta'minlash, ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish, ishlarni tahlil qilish bo'yicha o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi chora-tadbirlar (tadbirlar, elementlar) majmuuni anglatadi"¹⁰. Darhaqiqat, nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnat huquqlariga rioya etilayotganlik masalasida nazorat tadbirlarini tashkil etishdan avval bevosita bu masalada ma'lumotlar to'plash va tahlil qilish, sohaga oid qononchilik hujjatlarini chuqur o'rganish, o'rganilayotgan masalalarni aniq belgilab olish va shu kabilarni amalga oshirish nazorat tadbirlarini natijadorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnat huquqlari himoya qilish oid qonunchilik ijrosi yuzasidan nazorat tadbirlari O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasida tashkil etilgan Ijtimoiy sohada qonunchilik ijrosi ustidan nazorat boshqarmasi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalarida esa bu sohada tashkil etilgan bo'limlar tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu boshqarmaning vazifalari O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2021-yil 25-maydag'i 229-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasining Ijtimoiy sohada qonunchilik ijrosi ustidan nazorat boshqarmasi to'g'risida"gi nizom asosida belgilab berilgan. "Boshqarma o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari, prokuratura organlari va muassasalarida xizmatni o'tashga doir normativ-huquqiy hujjatlar, Bosh prokururaning hay'at qarorlari hamda Bosh prokurorning sohaviy buyruqlari, farmoyishlari va ko'rsatmalari asosida amalga oshirib, uning asosiy vazifalaridan biri sifatida esa mamlakatimizda mehnat qonunchiligi ijrosi, aholi bandligini ta'minlash, yangi ish o'rnlari yaratish, ijtimoiy himoyaga muhtoj va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo'lmagan shaxslarni bandligini tashkil etishga oid qonunchilikni bajarilishi ustidan nazorat olib borish belgilangan"¹¹. Ushbu nizomda belgilangan vazifalar doirasida boshqarma tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat huquqlarini himoya qilishga doir qonunchilik ijrosi yuzasidan nazorat tadbirlari tashkil etiladi. Ushbu boshqarma tarkibida fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish bo'limi ham tashkil

¹⁰ Прокурорский надзор: Учебник / Винокуров Ю.Е. и др.; Под общ. П78 ред. Ю.Е. Винокурова. — 6-е изд., перераб. и доп. — М.: Высшее образование, 2005. — 134-135 с.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorning buyruqlari [Matn] Т.2. – Toshkent: «Tasvir», 2018.

etilgan bo'lib, bu sohada o'z faoliyatini amalga oshirib kelmoqda. Shuningdek, bu sohada nazoratni amalga oshirishda 2017-yil 24-noyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurorining "Ijtimoiy va iqtisodiy qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 166-sonli buyrug'ida belgilab qo'yilgan ko'rsatmalardan foydalangan holda nazorat tadbirlari tashkil etiladi. Chunki ushbu buyruqda fuqarolarning mehnat huquqlarini ta'minlashda qanday masalalarga e'tibor qaratish kerakligi aniq belgilab qo'yilgan.

Buyruqda "kam ta'minlangan va himoyaga muhtoj oilalarning manzilli ijtimoiy himoya qilinishini, aholi bandligini, ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalarni o'z vaqtida to'lanihini ta'minlash prokuratura organlarini asosiy vazifalaridan biri etib belgilangan holda, mehnat va aholi bandligini ta'minlashga oid qonunchilik ijrosi ustidan samarali nazorat o'rnatish kerakligi, yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan dasturlar ijrosi, bu boradagi hisobotlarning haqqoniyligi, ijtimoiy himoyaga muhtoj, mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo'limgan shaxslarni ish bilan ta'minlashning ahvoli doimiy ravishda o'rganib borish kerakligi hamda fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklariga doir qonunchilik ijrosi yuzasidan nazoratni samaradorligini oshirish"¹², kabi ko'rsatmalar belgilab qo'yilgan. Ushbu ko'rsatmalar doirasida prokuratura organlari tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnat huquqlariga doir qonunchilik ijrosi yuzasidan nazorat tadbirlari amalga oshirilib kelinadi. Jumladan, Prokuratura organlari tomonidan 2023-yil davomida aholini ish bilan ta'minlash, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni o'z vaqtida to'lanilishiga oid qonunchilik ijrosi yuzasidan jami 564 ta nazorat tadbirlari o'tkazilib, qonunga zid bo'lgan 596 ta hujjatga protest keltirilgan, joylarga 573 ta taqdimnomma kiritilgan va qonunni buzgan 1 808 nafar shaxs intizomiy va ma'muriy javobgarlikka tortilgan. Bu raqamlar, shubhasiz, aholining mehnat huquqlarini ta'minlash prokuratura organlari tomonidan doimiy nazorat qilinayotganligini ko'rsatadi. Ammo nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnat huquqlariga oid yil davomida qancha nazorat tadbirlari o'tkazilayotganligi hamda nazorat hujjatlari qo'llanilganligi to'g'risida alohida statistik ma'lumotlar yuritilmasligi bu sohada qonuniylik ahvoli va prokuror nazoratinining bugungi holati qay darajada ekanligini aniq ko'rsatib beraolmayapti.

Shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnat huquqlarini himoya qilish sohasida nazorat tadbirlari amalga oshirilib kelinayotganligiga qaramasdan hanuzgacha korxona, muassasa, tashkilotlar hamda ularning mansabdor shaxslar tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnat huquqlariga oid qonunlarga rioya etmaslik kabi salbiy holatlar kuzatilmoqda.

¹² O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlari [Matn] T.2. – Toshkent: «Tasvir», 2018. – B. 63-78

Ularning bunday xatti-harakatlari qonunchilik hujjatlari talablariga bevosita zid bo'lib, nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnat huquqlarini buzilishiga sabab bo'lmoqda. Uning asosiy sabablari sifatida esa quyidagilarni keltirib o'tishimiz mumkin:

Birinchidan, nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnat huquqlariga rioya qilinayotganligi masalasiga mahalliy mehnat organlari hamda boshqa vakolatli davlat organlari tomonidan yetarlicha e'tibor qaratilmayotganligi;

Ikkinchidan, nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnat huquqlariga doir qonunchilikni buzgan shaxslar o'z vaqtin aniqlanmasligi hamda ular javobgarlikka tortilmaslik kabi holatlarni mavjudligi;

Uchinchidan, bu sohada qonunbuzilish holatlarni kelib chiqishiga sabab bo'layotgan holatlarni bartaraf etish choralar yetarlicha ko'rilmayotganligi va boshqalar.

Ushbu muommolarni bartaraf etish uchun bu sohada prokuror nazoratini takomillashtirish zarur deb hisoblaymiz va bu borada xorijiy davlatlar tajribasiga e'tibor qaratishimiz bu sohadagi prokuror nazoratini takomillashtirishda takliflar ishlab chiqish imkonini beradi.

Bugungi kunda prokuratura organlarining qonunlar ijrosi yuzasidan nazorat funksiyasi asosan MDH mamlakatlarida saqlanib qolganligi sababli bu borada ushbu davlatlar tajribasiga murojaat qildik.

Nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnat huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonunchilik ijrosi yuzasidan prokuror nazorati sohasida Rossiya Federatsiyasi tajribasiga e'tibor beradigan bo'lsak, bugungi kunda Rossiya Federatsiyasi aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarinining, shu jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslarning ham huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda ularni har jihatdan himoya qilishga alohida e'tibor qaratmoqda. 1993-yil 12-dekabrda Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi munosabati bilan inson o'z huquq va erkinliklari eng oliy qadriyat deb e'lon qilingan va inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini tan olish, ularga rioya qilish va himoya qilish davlatning mas'uliyati hisoblanadi. Rossiya Federatsiyasining 1992-yil 17-yanvardagi 2202-1-sonli "Rossiya Federatsiyasi prokururasi to'g'risida" gi qonuni hamda unga 1995-yil 17-noyabrdagi kiritilgan o'zgartirishlar bilan inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarga rioya etilishi ustidan prokuror nazorati bobি kiritilgan. Qonunlar ijrosi, inson va fuqaroning huquq va erkinliklariga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratini amalga oshirishda prokuror tomonidan inson huquqlarini himoya qilishning ustuvor obyektlari qatoriga alohida ijtimoiy-huquqiy himoyaga muhtoj fuqarolar, shu jumladan nogironligi bo'lgan shaxslar ham kiradi. Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlariga rioya etilishi ustidan prokuror nazorati doimo dolzarb bo'lib kelgan, nogironlar huquqlarini tartibga soluvchi qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati tizimli xususiyatga ega bo'lib, mehnat, ta'lim,

sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya sohalarida amalga oshiriladi.¹³ Buning natijasida nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat huquqlariga rioya etilishi va bu boradagi qonunchilikni bajarilishini nazorat qilishda prokuratura organlari zimmasiga ko'plab vazifalar belgilab berildi.

Bundan tashqari, Rossiya federatsiyasi Bosh prokuraturasi va Rossiya Federatsiyasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining 03.03.2017-yildagi "Nogironlar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini ijro etish sohasida prokuratura nazoratining qonuniyligi va amaliyoti to'g'risida" gi qarori bilan nogironlarning huquqlarini himoya qilish sohasidagi prokuratura nazorati ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Shunday qilib, "nogironligi bo'lgan shaxslar prokuroring huquqiy himoyasining ustuvor obyektlari sifatida, ularning huquqlariga rioya etilishi ustidan prokuror nazorati esa inson va fuqaroning huquq va erkinliklariga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilandi"¹⁴. Ushbu amalga oshirilgan islohotlar nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnat huquqlarini har tomonlama himoya qilishda va bu boradagi qonunchilikni aniq va bir xilda bajarilishini ta'minlashda muhim qadamlar bo'ldi. Rossiya Federatsiyasida nogironligi bo'lgan shaxslarni huquqlarini, jumladan mehnat huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonunchilik ijrosi yuzasidan prokuror nazoratini amalga oshirish jarayonlari nafaqat qonun hujjatlari bilan, balki prokuratura faoliyatini tashkil etishning qonunosti normativ-huquqiy hujjatlarida - Rossiya Federatsiyasi Bosh Prokurorining buyruqlarida ham belgilanadi. Nogironligi bo'lgan shaxslarni huquqlarini himoyasiga doir Rossiya Federatsiyasi Bosh prokuroring 23.01.2018-yildagi 24-sonli "Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy xizmat ko'rsatish to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosi ustidan prokuror nazoratini kuchaytirish to'g'risida" gi buyrug'i qabul qilingan bo'lib, "unda inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini nazorat qilishning ushbu yo'nalishi (kichik sohasi) huquqiy munosabatlarning ushbu sohasining dolzarbligi munosabati bilan hamda boshqa sohalardan nazorat predmeti, nazorat ostidagi huquqiy munosabatlar turi va ularning sub'ektlari bilan farqlanishi sababli prokuraturaning yangi mustaqil ustuvor faoliyati sifatida belgilangan"¹⁵. Nogironligi bo'lgan shaxslarni huquqlarini himoya qilish prokuratura organlarining alohida bir faoliyat yo'nalishi sifatida umumiylashtirish nazorat faoliyati sohasidan ajratilishiga sabab nogironligi bo'lgan shaxslarning murojaatlari hamda prokurorlar tomonidan

¹³ Игонина Н. А., Викторов И. С., Добрецов Д. Г. Государственная деятельность в области защиты прав инвалидов: Генезис и современность // историко-правовые проблемы: новая перспектива. – 2018. – №т. 4. - С. 110-127.

¹⁴ Международно-правовая защита прав и свобод человека: теория и практика: Круглый стол. 4 декабря 2017 г. / Под ред. д-ра юрид. наук, проф. С.А. Глотова. – М.: Международный юридический институт, 2018. – 188 с.

¹⁵ Галузин А. Ф. О новом приоритетном направлении отрасли прокурорского надзора за исполнением федерального законодательства-законодательства о социальных правах инвалидов //Вестник Самарского юридического института. – 2019. – №. 4 (35). – С. 34-39.

amalga oshirilgan tekshirishlarda ularning huquqlari hamda erkinliklariga hamda ularga doir qonunchilikka rioya etilmayotganligi hisoblanadi. Ushbu qabul qilingan buyruqda nogironligi bo'lgan shaxslarni boshqa turdag'i huquqlari bilan birga mehnat huquqlariga rioya etilishi yuzasidan maxsus ko'rsatmalar belgilangan bo'lib, ushbu ko'rsatmalar doirasida bu sohada nazorat tadbirlari muntazam amalga oshirilib kelinadi.

Bu borada Qozog'iston Respublikasi tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Qozog'iston Respublikasi fuqarolarining Konstitutsiyada mustahkamlangan hamda asosiy qonunlarda va Mehnat kodeksida aks ettirilgan mehnat va bandlik sohasidagi huquqlari va kafolatlari nogironligi bo'lgan shaxslarga ham to'liq tatbiq etiladi. Mamlakat Konstitutsiyasi (24-moddaning 1-bandi) va Mehnat kodeksi (5-modda) mehnat munosabatlarini huquqiy tartibga solishning asoslarini belgilab beradi, ular hech qanday istisnosiz nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan mehnat qilish erkinligi, mehnatni erkin tasarruf etish huquqi, mehnat qobiliyati, kasb va faoliyat turini tanlash, ishsizlikdan himoyalanish va ishga joylashishda yordam olish huquqi, mehnat sohasida kamsitishning taqiqanishi qo'llaniladi. Bundan tashqari, har bir inson xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan sharoitlarda ishslash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz haq olish, mehnat huquq va erkinliklarini himoya qilish, shu jumladan sud orqali himoyalanish huquqiga egadir”¹⁶.

Qozog'iston Respublikasida nogironligi bo'lgan shaxslarni qonunchilikda belgilab qo'yilgan mehnat huquqlarini himoya qilish va ularni bu borada buzilgan huquqlarini tiklashda prokuratura organlarining ahamiyati beqiyos hisoblanadi. Mamlakat “Prokuratura to'g'risida”gi qonunning 4-moddasiga ko'ra, “Inson, uning hayoti, huquq va erkinliklarini davlatning oliv qadriyati sifatida himoya qilish, Qozog'iston Respublikasi hududida qonun ustuvorligini ta'minlash prokuratura organlarini asosiy maqsadi bo'lib, inson va fuqaroning buzilgan huquqlari va erkinliklarini himoya qilish va ularni tiklash prokuraturaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi”¹⁷. Ushbu qonunda belgilab qo'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish jarayonida prokuratura organlari nogironligi bo'lgan shaxslarni Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo'yilgan mehnat huquqlarini himoya qilish borasida o'z faoliyatini amalga oshirib kelmoqdalar va bu borada nazorat tadbirlari doimiy asosda tashkil etilib, ularni boshqa huquqlari qatori mehnat huquqlari ham tiklanmoqda. Masalan, “2022-yilda Qozog'iston Respublikasi prokuratura organlari tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlariga rioya etilishini

¹⁶ Elektronmanbaa: <https://docstore.ohchr.org/SelfServices/FilesHandler.ashx?enc=6QkG1d%2FPPRiCAqhKb7yhsj2984V8b3rUhA5qrPxZmiMSoh%2Bz9YWLKwpxHsjWXM0LP%2FFG%2B%2B4TLxNqL65WHuc4L3GyFZo87jiRg15OHiqpAaqfkRrsDqc1gRmA0E%2FYI> (tashrif buyurilgan 26.04.2024).

¹⁷ Elektron manbaa: <https://adilet.zan.kz/rus/docs/Z2200000155> (tashrif buyurilgan: 25.04.2024).

tekshirish doirasida 1,8 mingdan ortiq qonunbuzarliklarni aniqlaganlar. Ularning 11 mingdan ortig'i huquqlari himoyalangan. Masalan, prokuror nazorati choralar bo'yicha mamlakatni yetti tuman va shahar hokimlarining qarorlari ushbu toifadagi shaxslar uchun ish o'rirlari kvotasini oshirish orqali o'zgartirilib ularni boradagi buzilgan mehnat huquqlari tiklangan. Umuman ushbu tekshiruvlar natijalariga ko'ra jami 336 ta nazorat akti kiritilib, 130 kishi intizomiy javobgarlikka tortilgan, 65 kishi ma'muriy javobgarlikka hamda 2 kishi jinoiy javobgarlikka tortilgan”¹⁸.

Ushbu raqamlar mamlakatda nogironligi bo'lган shaxslarni huquqlarini, shu jumladan, mehnat huquqlarini himoya qilishda prokuratura organlari muhim ro'л o'ynashini ko'rsatib bermoqda. Shuningdek, bu sohada prokuror nazoratini samarali tashkil etish va uni amalga oshirishda Prokuratura to'g'risidagi qonun bilan birga mamlakat Bosh prokurorining buyrug'ini asos sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, Qozog'iston Respublikasi Bosh prokurorining 2023-yil 17-yanvardagi “Prokuror nazoratini tashkil etishning ayrim masalalari to'g'risida”gi 32-son buyrug'ida “Prokuratura organlari nogironligi bo'lган shaxslarni huquqlariga doir nazorat tekshirishlarini o'tkazishdan avval yoki mamlakatda bu sohadagi qonuniylik ahvolini aniqlashtirish maqsadida yiliga kamida bir marta tahlilni amalga oshiradi. Nogironligi bo'lган shaxslarning huquqlarini, shu jumladan quyidagi huquqlarni himoya qilish sohasidagi qonun hujjatlarini qo'llash masalalari o'rganiladi:

- ijtimoiy himoya, shu jumladan reabilitatsiya, jamiyatga integratsiya;
- ijtimoiy infratuzilma ob'ektlaridan foydalanishni ta'minlash;
- axborotga kirishni ta'minlash;
- ta'lim, faoliyat turini, shu jumladan ishni erkin tanlash;
- kasbiy tayyorlarlik va qayta tayyorlash, reabilitatsiya va bandlik va boshqalar.

O'tkazilgan tahlillar natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar har chorakda, hisobot davridan keyingi oyning 5-kunidan kechiktirmay Bosh prokuraturaga taqdim etiladi”¹⁹. Ushbu buyruqda ko'rsatilgan ko'rsatmalar prokuratura organlari tomonidan nogironligi bo'lган shaxslarni mehnat va shu kabi boshqa huquqlari to'g'risidagi qonunchilik ijrosi yuzasidan prokuror nazoratini samarali va sifatli tashkil etish uchun asos bo'lib, ularni bu sohadagi faoliyatini to'g'ri tashkil etish imkonini beradi.

Umuman olganda, Qozog'iston Respublikasida ham nogironligi bo'lган shaxslarni mehnat huquqlarini himoya qilishda boshqa davlatlarda bo'lgani kabi prokuror nazorati doimiy ravishda

¹⁸ Elektron manbaa: <https://www.gov.kz/memleket/entities/prokuror/press/news/details/408679?lang=ru> (tashrif buyurilgan: 27.04.2024).

¹⁹ Elektron manbaa: <https://adilet.zan.kz/rus/docs/V2300031753#z645> (tashrif buyurilgan: 27.04.2024).

amalga oshiriladi va ushbu davlatda ularni bu huquqlarini himoya qilish borasida prokuratura organlarini o'rni va faoliyat yo'nalishlari aniq belgilanganligi bilan xarakterlanadi.

Shu bilan birga Ukraina, Belarussiya, Qirg'iziston Respublikasi kabi davlatlar ham nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnat huquqlari yuzasidan prokuror nazorati umumiy nazorat doirasida olib borilib, har bir davlatda shakllangan tajribadan hamda tizimdan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Ushbu xorijiy davlatlar tajribasidan hamda bugungi kunda mamlakatimizdagi nogironligi bo'lgan shaxslarni huquqlari, jumladan, mehnat huquqlarini himoya qilishning bugungi holatidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasidagi Ijtimoiy sohada qonunchilik ijrosi ustidan nazorat boshqarmasi tarkibida Nogironligi bo'lgan shaxslarni huquqlarini himoya qilish oid qonunchilik ijrosi yuzasidan nazorat bo'limini tashkil etish ya'ni bu sohani alohida subtarmoq sifatida ajratish hamda bu sohadagi yuklatilgan vazifalarni joylarda amalga oshirishni esa hududiy prokurturalarda xizmat qilayotgan muayyan bir xodimlar zimmasiga yuklash maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz. Bu bo'limni tashkil etishimiz orqali aholining boshqa qatlamlariga nisbatan alohida ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami bo'lgan nogironligi bo'lgan shaxslarni boshqa huquqlari qatori mehnat huquqlarini ham erkin amalga oshirish hamda ularni har qanday qonunbuzilish holatlaridan o'z vaqtida himoya qilish, buzilgan huquqlarini tiklashda samarali mexanizm yaratishimiz mumkin va bu bugungi kunda davlatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarga ham to'la mos keladi deb hisoblaymiz. Shu bilan birga bu sohada faoliyatni samarali amalga oshirish va nazorat tadbirlarni to'g'ri tashkil etish uchun bu haqidagi ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan "Nogironligi bo'lgan shaxslarni huquqlariga doir qonunchilik ijrosi yuzasidan prokuror nazoratini takomillashtirish to'g'risida"gi Bosh prokuror buyrug'ini qabul qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. ushbu sohaviy buyruqda nogironligi bo'lgan shaxslarni konstitutsiya va qonunlarda, qonunosti hujjalarda belgilangan mehnat huquqlarini bajarilish holati yuzasidan doimiy nazoratni tashkil etishga doir maxsus ko'rsatmalar berish maqsad muvofiq hisoblanadi. Jumladan:

- Bu sohada huquqi qo'llash amaliyotini tizimli ravishda o'rganish, nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat huquqlarini himoya qilish sohasidagi qonunchilik holatini, huquqi qo'llash sohasidagi dolzarb muammolarni tahlil qilish, ularni muntazam ravishda ishchi guruhi yig'ilishlarida muhokama qilish;

- Nogironligi bo'lgan shaxslarni bandligini ta'minlash to'g'risidagi qonunchilikka qat'iy rioxva qilinishni ta'minlash va bu borada vakolatli tashkilotlarda har chorakda nazorat tadbirlarini o'tkazish;

- Nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat huquqlarini himoya qilish, aniqlangan huquqbarliklarni real bartaraf etish uchun berilgan vakolatlardan izchil va qat'iyat bilan foydalanish;

- Nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat huquqlari buzilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida olish, ushbu sohadagi qonunchilikning holati to'g'risida internet va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan nashrlarni monitoring qilish, nogironlar jamoat birlashmalari va huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- Nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnat huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya qilmaslik faktlarini zudlik bilan tekshirishni tashkil etish;

- Bu sohada prokuror nazorati samarali tashkil etish orqali ularning buzilgan huquqlarining haqiqiy tiklanishiga, nogironligi bo'lgan shaxslarga huquqlari buzilishi natijasida yetkazilgan zararning qoplash va bunga aybdor bo'lgan shaxslarni qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortish choralarini ko'rish va shu kabi boshqa vazifalar belgilash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnat huquqlariga rioya etilishida, ularni har qanday huquqbarliklardan himoya qilishda hamda buzilgan huquqlarini tiklashda prokuratura organlari tomonidan tashkil etiladigan nazorat tadbirleri muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular bu sohada nazorat tadbirlarini o'tkazish orqali qonun ustuvorligini ta'minlash bilan birga, qonuniylikni mustahkamlash, huquqbarliklarni o'z vaqtida aniqlash va ularni barataf etishni ta'minlaydi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 2019-yil 9-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [Matn]. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2023-y.
3. Madaliyev O.M. Prokuror nazorati. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. (Umumiyl qism.) T.: «ILM ZIYO», 2012.
4. Po'latov B.X. O'zbekiston Respublikasi prokururasining konstitutsiyaviy maqomi // “O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasining Oliy o'quv yurtlari axborotnomasi”, 2017, №4 (32).

5. Komilov A.B. Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish. Diss. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuratura akademiyasi, - Т. 2020.
6. Казарина А.Х. Избранные труды / сост. Р.В. Жубрин и др.; Академия Генеральной прокуратуры Российской Федерации. М., 2014.
7. Настольная книга прокурора / под общ.ред. С. Г. Кехлерова, О. С. Капинус. 3-е изд., пе-пераб. и доп. М.: изд-во «Юрайт», 2014.
8. Акчурин А. В., Легостаев С. В. Прокурорский надзор в схемах: учебное пособие. М., 2019.
9. Прокурорский надзор: Учебник / Винокуров Ю.Е. и др.; Под общ. П78 ред. Ю.Е. Винокурова. — 6-е изд., перераб. и доп. — М.: Высшее образование, 2005.
10. Игонина Н. А., Викторов И. С., Добрецов Д. Г. Государственная деятельность в области защиты прав инвалидов: Генезис и современность // историко-правовые проблемы: новая перспектива. – 2018. – Нет. 4.
11. Международно-правовая защита прав и свобод человека: теория и практика: Круглый стол. 4 декабря 2017 г. / Под ред. д-ра юрид. наук, проф. С.А. Глотова. – М.: Международный юридический институт, 2018.
12. Галузин А. Ф. О новом приоритетном направлении отрасли прокурорского надзора за исполнением федерального законодательства-законодательства о социальных правах инвалидов //Вестник Самарского юридического института. – 2019. – №. 4 (35).
13. O'zbekiston Respublikasi "Prokuratura to'g'risida"gi qonuni. 2001-yil 29-avgust 257-II-sonli. Elektron manbaa] // Lex.uz, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – Т, 2024 (tashrif buyurilgan 03.03.2024).
14. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorning buyruqlari [Matn] Т.2. – Toshkent: «Tasvir», 2018.
15. Elektron manbaa: www.adilet.zan.kz (tashrif buyurilgan: 25.04.2024).
16. Elektron manbaa: www.gov.kz (tashrif buyurilgan: 27.04.2024).